

PUNKTUATSIYA VA UNING TAMOYILLARI

Qosimova Zebiniso Sodiq qizi

Buxoro Davlat Universiteti magistranti

Annotatsiya: *Punktuatziya tilshunoslik bo'limlaridan biri bo'lib, yozuv madaniyatini shakllantirish va takomillashtirishda alohida ahamiyatga ega. Tinish belgilari, bir tomondan, yozuvchiga o'z yozma nutqini aniq, to'g'ri va ifodali bayon etish imkoniyatini bersa, ikkinchi tomondan, o'quvchiga muayyan matndagi fikrni yozuvchi bayon etganidek, yozuvchining maqsadiga muvofiq tushuna olish imkoniyatini yaratadi.*

Kalit so'zlar: *Punktuatziya, grammatik qurilish, yozma nutq, buyruq va undov gaplar, ishoraviy sinonimiya.*

PUNCTUATION AND ITS PRINCIPLES

Qosimova Zebiniso Sodiq qizi

Master degree student of Bukhara State University

Abstract: *Punctuation is one of the departments of linguistics and is of particular importance in the formation and improvement of writing culture. Punctuation marks, on the one hand, give the writer the opportunity to express his written speech clearly, correctly and expressively, and on the other hand, create the opportunity for the reader to understand the idea of a certain text as expressed by the writer, according to the writer's purpose.*

Key words: *Punctuation, grammatical construction, written speech, imperative and exclamatory sentences, symbolic synonymy.*

Tinish belgilarining qo'llanilishi gaplarning mazmuni, grammatik qurilishi va ohangiga ko'ra bo'linadi. Ayrim tinish belgilarning qo'llanilishi gapning mazmuni bilan bog'liq bo'ladi. Jumladan: ifodalonmoqchi bo'lgan mazmun tugallangan bo'lsa, nuqta, undov, so'roq belgisi, uch nuqta qo'yiladi. Tugallanmagan yoki izohtalab tushunchalar ko'p nuqta yoki qavslar bilan ifodalanadi.

Tinish belgilari yozma matndagi gap bo'laklari, gapning ayrim qismlari va gaplarning o'zaro turli sintaktik munosabatlari (birikishi, bo'linishi, ajralishi, ayrilishi kabilar)ni ko'rsatish uchun qo'llanadi. Tinish belgilari yozma matndagi turli holatlar, ikki his-hayajon va turli mazmuniy tovlanishlarni ifodalash uchun qo'llanadi. Masalan, undov belgisi ham undov gaplar, ham buyruq gaplar

oxiriga qo'yiladi. Buyruq va undov gaplardagi ma'no tushlari o'z ichida yana turlicha bo'lishi mumkin. Bunday paytlarda undov belgisining qanday ma'no va vazifada qo'llanganligi matn mazmunidan aniqlanadi. Tinish belgilari yozma matnning tarkibiy va uslubiy jihatlarini to'g'ri belgilash uchun xizmat qiladi. Masalan: *Men opamning jildidan qalin kitobni – Qur'on bo'lsa kerak – olib, pala-partish varaqlayman.* (Oybek.) Bunda kirish gap qo'sh tire vositasida ajratilgan. Ma'lumki, kirishlar doimo vergul bilan ajratilib, ba'zi hollarda qavsga olinadi. Yuqoridagi misolda qo'sh tire vergul o'rnida qo'llangandir. Demak, bunda qo'sh tire qo'shimcha vazifani bajarayotir. Tinish belgilarining bunday birining o'rnida ikkinchisining qo'llanishi ishoraviy sinonimiyani hosil qiladi. Gapning ajratilgan bo'laklari vergul ham tire vositasida, kiritma qurilmalar tire ham qavs vositasida ajratiladiki, bular ham ishoraviy sinonimiyaning ko'rinishlaridir.

Davrlar o'tishi, yozuv taraqqiyoti va yozuv madaniyatining o'sishi bilan punktuatsiya ham o'zgarib, takomillashib boradi. Yozuvda dastlab qo'llanilgan tinish belgilarning qo'yilish o'rni, usuli, vazifalari hozirgidek aniq va murakkab bo'lmagan. Masalan, dastlab yulduzcha va romba tipidagi 10 dan ortiq ishoralar nuqta o'rnida ishlatilgan. XIX asrning oxiriga kelib, yozuvda hozirgi nuqtaning qo'llanilishi qat'iylashgach, ular nuqtalikdan chiqqan. Demak davr talabiga bog'liq holda punktuatsion sistema o'zgarib boradi, mukammallashadi. Shuningdek, punktuatsiya va punktuatsion sistema tillararo har xildir. Punktuatsiya ayrim xalqlar yozuvida oldinroq ayrimlarida esa nisbatan keyinroq paydo bo'lgan. Masalan, punktuatsion sistema rus yozuvida XVIII asrda, o'zbek yozuvida esa XIX asrning ikkinchi yarmidan keyin vujudga kelgan. O'zbek tilida esa 10 ta tinish belgi (nuqta, vergul, nuqtali vergul, ko'p nuqta, ikki nuqta, so'roq belgisi, undov belgisi, tire, qo'shtirnoq, qavs) mavjud.

Hozirgi o'zbek punktuatsiyasining shakllanishi, rivoji, uning o'rganilishi Fitrat, S.Ibrohimov, H.G'oziev, O.Usmonov, G'.Abdurahmonov, K.Nazarov va boshqa tilshunoslarning nomi bilan bog'liq. Punktuatsiya masalalari bilan bevosita shug'ullangan H.G'oziev («O'zbek punktuatsiyasining tarixiy taraqqiyoti», 1969, 1979), G'.Abdurahmonov («Punktuatsiya o'qitish metodikasi», 1968), K.Nazarov («Tinish belgilari va yozma nutq», 1974; «O'zbek tili punktuatsiyasi», 1976)larning asarlari nashr etilganiga ancha yillar bo'ldi va ulardagi tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi fikr-mulohazalar ham bir qadar o'zgardi. Buning ustiga, «muallif punktuatsiyasi», ya'ni muayyan muallif tomonidan tinish belgilarining amaldagi qoidalarga bo'ysunmagan, unga rioya qilmagan holda individual qo'llash holatlari uchraydiki, bu ham keng o'quvchilar ommasini chalkashtiradi, shubhalantiradi.

Yozuv tarixiga e'tibor qaratilganda, dastlabki qo'llangan tinish belgilari matndagi jummalarni ajratish, to'xtash o'rinlarini belgilash uchungina ishlatilgan. Ular "yozuvdan keyin paydo bo'lgan va ijtimoiy vazifa ifodalagach, yozuvning tarkibiy qismiga aylangan. Eng qadimgi yozuvlar ko'proq piktografik yoki logografik (alohida shakllar, belgilar orqali fikr ifodalash) shaklda bo'lganligi sababli tinish belgilariga ehtiyoj sezilmagan". Dastlabki tinish belgilari yozuv tarkibida semantik va grammatik funksiyalar bajarish uchun qo'llanmasa-da, lekin ma'lum darajada jummalarning intonatsion sifatlarini o'zida aks ettirgan. O'z navbatida, tinish belgilarining og'zaki nutqda namoyon bo'lishi, albatta, ohang kabi murakkab prosodik hodisa bilan uzviy bog'liq. Jahon tilshunosligida punktuatsion belgilarning shakllanish tarixi va evolyutsiyasiga nazar tashlanganda, dastlab tinish belgilarining prototiplari sifatida bo'shliq (interval)lar tanlangan. Xususan, "qadimgi yunonlar antik davrda so'zlarni bo'shliqlar bilan ajratib, jummalarning boshini katta harf bilan yozishni qo'llaganlar". Tinish belgilari oraliq masofani ifodalashdan tashqari, oddiy belgilar, shuningdek, ba'zi tipografik belgilarni anglash, o'qish va tushunish, kerakli o'rinlarda sukut qilish hamda ovoz chiqarib o'qish kabi so'zlardagi turli aksentema va melodikalar bilan uyg'unlashgan.

Tadqiqotlarga tayangan holda aytish mumkinki, dastlab qo'llangan punktuatsion belgilar so'zlarni va jummalarni bir-biridan ajratish, og'zaki nutq bilan bog'liq bo'lgan turli aksentema va melodikalarni ifodalash uchun qo'llangan. Ular bugungi kunda tinish belgilari yordamida yuzaga keladigan semantik va grammatik ma'nolarni ifodalashga xizmat qilmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov G'., Punktuatsiya o'qitish metodikasi, T., 1968; Nazarov K., O'zbek tili punktuatsiyasi, T., 1976.
2. Maxmudov N.M, Madvaliev A.P, Mahkamov N. O'zbek punktuatsiyasining asosiy qoidalari. – Toshkent: O'zbekiston, 2015.- B. 4.
3. Ro'ziyev Y.B, Nemis adabiy tilida o'zlashtirma nutq, Центр научных публикаций (buxdu uz) 22 (22).
4. Ganiyevna K. N., Sharifovich B. Z. ENGLISH EXPRESSION OF ECONOMIC CONCEPTS SUCH AS STRATEGY, MISSION, ORGANIZATIONAL POTENTIAL, SMART //E-Conference Globe. – 2021. – С. 24-27.
5. Ganiyevna K. N. The peculiarities of making perfect lesson plan //Достижения науки и образования. – 2018. – №. 5 (27). – С. 45-46.

6. Shavkatovna S. N., Ganiyevna K. N. Using podcasts for enhancing listening and speaking skills in EFL classes //Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes. – 2022. – C. 248-251.

7. Nurilloevna K. M., Shavkatovna S. N., Ganiyevna K. N. DEMAND FOR GENRES OF JOURNALISTIC TEXTS IN ONLINE MEDIA //Ann. For. Res. – 2022. – T. 65. – №. 1. – C. 7883-7888.